TOSHKENT VILOYATI QIBRAY TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 5 - fevral 41-10-139-Q/22 Qibray tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022 yil 31 yanvardagi 17-10-0-Q/22-son qarori ijrosini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-noyabrdagi “Aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini yaxshilash va sog‘liqni saqlash sohasida kadrlar salohiyatini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–6-son qarori, Toshkent viloyati hokimining 2022 yil 31 yanvardagi 17-10-0-Q/22-son qarorlari ijrosini ta’minlash, shuningdek, sog‘liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va resurs imkoniyatlarini kengaytirish, ularni zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlash, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25- moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent viloyati hokimining 2022 yil 31 yanvardagi 17-10-0-Q/22-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent viloyati hokimining mazkur qaroriga muvofiq quyidagilar:

Qibray tuman tibbiyot muassasalari uchun zamonaviy tibbiy uskunalar xarid qilish hamda ulardagi mutaxassislarning yetakchi xorijiy tibbiy muassasalarda malakasini oshirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan Moliya vazirligiga uning talabnomalariga asosan 2021–2022-yillarda 100 mln AQSh dollarigacha ekvivalentdagi milliy valyutada yillik 2 foiz stavkada kredit mablag‘lari ajratilsin. Bunda, ushbu mablag‘lar Moliya vazirligining talabnomalari taqdim etilgan sanadan boshlab 3 yil muddatgacha berilishi belgilanganligi;

Moliya vazirligi ajratilayotgan mablag‘larni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining asoslangan

talabnomalariga hamda belgilangan stavkaga ko‘ra qaytarish sharti bilan 3 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ularga budjet ssudasi sifatida ajratish. Bunda, Moliya vazirligi kredit mablag‘larini respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarini zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlashga va yetakchi xorijiy tibbiy muassasalarda ularning mutaxassislari malakasini oshirishga ham yo‘naltirishi belgilanganligi ma’lumot va amaliy faoliyatda qo‘llanma uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (X.Bekmurodov, R.Sayliyev), Tuman tibbiyot birlashmasi (A.Ergashev) birgalikda:

xatlov o‘tkazish asosida har bir hudud va muassasa kesimida tibbiy uskunalarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash hamda ssuda mablag‘lari hisobidan xarid qilinadigan uskunalar ro‘yxatini Toshkent viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasiga kelishish uchun kiritish va kelishilgan ro‘yxatga asosan tibbiy uskunalarni xarid qilish;

ajratilayotgan ssuda mablag‘larining samarali va maqsadli ishlatilish choralarini ko‘rish;

xorijda malaka oshiradigan tibbiyot xodimlari ro‘yxatini tanlov (konkurs) asosida shakllantirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 maydagi PF – 6221-son Farmoni bilan tashkil qilingan Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlash;

hududlardagi tibbiyot muassasalari mutaxassislarining yetakchi xorijiy tibbiy muassasalarda malakasini oshirish uchun belgilangan tartibda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

tibbiyot muassasalarining moddiy- texnika bazasini mustahkamlash va kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman tibbiyot birlashmasi (A.Ergashev)ga ushbu qaror doirasidagi tibbiy uskunalarni xarid qilish jarayoni va ulardan samarali foydalanish ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin hamda har chorakda tuman hokimligiga ma’lumot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Bekmurodov, tuman hokimi o‘rinbosari R.Sayliyev, Tuman tibbiyot birlashmasi bosh shifokori A.Ergashev zimmasiga yuklansin.

Туман ҳокими **М. Миркасимов**